



MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTIDA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH VA MONOPOLIYALARNI TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI

Akbarov Jasur Ikromjon o'g'li

*Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar
huquqlarini himoya qilish qo'mitasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada, monopoliyaning kelib chiqishi, unga berilgan turli ta'riflar, monopoliyalarni tartibga solish va unda davlatning rolini oshirish, monopoliyaga qarshi boshqaruvning mazmun-mohiyati, nazariy asoslari, zarurati hamda mamlakatimizda raqobat muhitini rivojlantirishning ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: yangi tahrirdagi "Raqobat to'g'risida"gi Qonun, monopoliyaning nazariy asoslari, monopoliyani davlat tomonidan tartibga solish, raqobatni rivojlantirish, bozor munosabatlari, makroiqtisodiy barqarorlik.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ КОНКУРЕНЦИИ И РЕГУЛИРОВАНИЯ МОНОПОЛИЙ В ЭКОНОМИКЕ НАШЕЙ СТРАНЫ

Акбаров Жасур Икромжон ўғли

*Комитет по развитию конкуренции
и защите прав потребителей*

Аннотация. В данной статье рассматриваются возникновение монополии, различных определениях, данных ей, регулирование монополии и повышение в ней роли государства, сущности и теоретических основах антимонопольного управления, а также важности развития конкурентной среды в нашей стране.

Ключевые слова: закон «О конкуренции» в новой редакции, теоретические основы монополии, регулирование монополии государством, развитие конкуренции, рыночные отношения, макроэкономическая стабильность.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPMENT OF COMPETITION AND REGULATION OF MONOPOLIES IN THE ECONOMY OF OUR COUNTRY

Akbarov Jasur Ikromjon o'g'li

*Competition promotion and
consumer protection committee*

Abstract. This article discusses the origin of monopoly, various definitions given to it, regulation of monopolies and increasing the role of the state in it, the essence, theoretical foundations, necessity of anti-monopoly management, and the importance of developing a competitive environment in our country.

Key words: law "On Competition" in a new edition, theoretical foundations of monopoly, regulation of monopoly by the state, development of competition, market relations, macroeconomic stability.

Kirish.

Bugungi kunda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida mamlakat makroiqtisodiy barqarorligiga hamda iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga erishish, avvalambor, monopoliyaga qarshi boshqaruvni samarali tartibotlarni amalga oshirish va real raqobatchilik muhitini shakllantirish, bunda raqobat muhitini rivojlantirish uchun qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish va zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda. Shu bois ham, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Raqobat to'g'risida"gi (2023-yil 3-iyul, O'RQ-850-son) Qonuni qabul qilindi. Yangi tahrirdagi "Raqobat to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishidan asosiy maqsad, tovar yoki moliya bozorlarida raqobatning cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlarni nazorat qilishni amalga oshirish hamda ularga chek qo'yish bilan bog'liq bo'lgan, raqobat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir (Qonun, 2023).

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-sonli hamda 2023-yil 25-yanvardagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-14-son Farmonlariga muvofiq Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi hamda Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish agentligi negizida Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi tashkil etildi hamda 2023-yil 6-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-108-sonli Farmoni qabul qilindi (Farmon, 2023).

Ushbu Farmon bilan Qo'mita faoliyatining ustuvor yo'nalishlari, tashkiliy tuzilmasi, sohada islohotlarni chuqurlashtirish va raqobatni ta'minlash, tovar-xom ashyo birjalari faoliyatini tartibga solish, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish va reklama sohalarida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, davlat organlarining ushbu yo'nalishdagi faoliyatini muvofiqlashtirish hamda mazkur sohalarda qonunchilikka rioya etish ustidan nazoratni amalga oshirish bo'yicha ustuvor vazifalari belgilandi.

Adabiyotlar sharhi.

Monopoliyalarni tartibga solish va unda davlatning ro'lini oshirish, monopoliyaga qarshi boshqaruvning mazmun-mohiyati haqida fikr yuritishdan avval, monopoliyaga qarshi boshqaruv nazariyasi, uning turlari, vujudga kelish asoslarini bayon etish maqsadga muvofiq, deb o'ylayman.

Adabiyotlarda "Monopoliya" (inglizcha monopoly) yunoncha "monos" – bitta (yagona), tanho va "poleo" – sotaman, degan ma'noni anglatib, bozor sharoitida biron-bir faoliyat sohasidagi yagona sotuvchi, tanho xizmat ko'rsatuvchi bo'lib (Stankovskaya, Strelets, 2008), ta'rifga ko'ra monopoliya – bu o'xshashi bo'lmagan qandaydir mahsulotning tanho ishlab chiqaruvchisi bo'lgan yagona firma, kompaniya, degan ma'nolari keltiriladi.

Monopoliya atamasining mazmunini ifodalashda ikkinchi yondashuv – bu monopoliyalarga bozordagi ishtirokchilar (sotuvchi yoki xaridorlar) sonining cheklanganligi tufayli vujudga kelgan mahsulot ishlab chiqarish hajmi va narxiga ta'sir o'tkazish imkoniyatini namoyon etuvchi bozor holati sifatida qarash orqali tavsiflanadi.

Monopoliyalarning iqtisodiy mazmuni ularning namoyon bo'lish shakli va turlarini tadqiq etish orqali yanada kengroq ochib berilish mumkin. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy adabiyotlarda monopoliyaning turlari har xil belgilari bo'yicha turkumlanadi. Biroq, muallif tomonidan turkumlangan har bir monopoliya turlari to'liq bo'lmay, ba'zi bir monopoliya turlarining ajratib ko'rsatilishi munozarali hisoblanadi. Shuningdek, turli mualliflar tomonidan amalga oshirilgan turkumlash ba'zida bir-biriga zid holatlarni ham keltirib chiqaradi.

Kostusev (2004) monopoliyalarning kelib chiqish manbaiga ko'ra institutsional monopoliya va tadbirkorlik asosidagi monopoliyalarni farqlash lozim deb hisoblaydi. Institutsional monopoliyalar turli institutlar tomonidan vujudga kelib, bozor ishtirokchilari uchun raqobatning teng bo'lmagan sharoitlarini sun'iy tarzda hosil qilinishi orqali namoyon bo'ladi. Tadbirkorlikka asoslangan monopoliya esa bozor hukmronligiga, ya'ni mahsulot taklifi va talabini tartibga solish orqali uning narxini nazorat qilish imkoniga ega bo'lgan tuzilmalarning rivojlanishi natijasida vujudga keladi. Institutsional monopolizmning kelib chiqishi asosan davlat va mahalliy hokimiyatning litsenziyalash va proteksionistik xatti-harakatni olib borishi bilan bog'liq raqobatga qarshi aralashuvi natijasi hisoblansa, tadbirkorlik monopolizmining asosida ishlab chiqarishning konsentatsiyalashuvida yotadi.

Tatqiqot metodologiyasi.

Mazkur tatqiqot ishida mamlakatimiz iqtisodiyotida raqobat muhitini rivojlantirishning ahamiyati va raqobat muhitining vujudga kelishi, monopoliyaga qarshi boshqaruvda davlatning bugungi kundagi siyosati, ushbu sohada yangi qabul qilingan farmon va qonunlar, monopoliyaning nazariy asoslari tahlili, kelib chiqishi va ma'nolari keng yoritilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida raqobat muhitini rivojlantirish hamda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 6-iyuldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-108-sonli Farmoni qabul qilinishi natijasida, Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi monopoliyaga qarshi yagona respublika organi bo'lib, o'z faoliyatida bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga va Oliy Majlis Senatiga hisobdor hisoblanib, har yili iqtisodiyotda raqobat muhiti va iste'molchilar huquqlarining himoya qilinishi holati to'g'risida hisobot berishi belgilab berildi (Farmon, 2013).

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 3-iyuldagi "Raqobat to'g'risida"gi O'RQ-850-son Qonuni 6-moddasida Raqobat sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilandi. Jumaladan (Qonun, 2023):

-iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatleri ustuvorligini inobatga olgan holda raqobatni himoya qilish, raqobatga qarshi harakatlarning oldini olish va ularni to'xtatish;

-jamiyatda raqobatga qarshi har qanday xatti-harakatlarga nisbatan murosasizlikni shakllantirish;

-raqobat muhitini rivojlantirish hamda tovar va moliya bozorlarining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

-tovar va moliya bozorlari ishtirokchilarining iqtisodiy faoliyati erkinligini hamda tovarlarning erkin harakatlanishini ta'minlash;

-tabiiy monopoliyalar subyektlari faoliyatni amalga oshiradigan sohalarda raqobat muhitini shakllantirish;

-tovar va moliya bozorlarining ishtirokchilari uchun teng shart-sharoitlarni belgilash hamda davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish;

-raqobat muhitini yaxshilash va rivojlantirish uchun respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining javobgarligini oshirishdir.

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan monopoliyaga qarshi siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri - bu monopolist korxonalarining Tovar yoki moliya bozoridagi egallab turgan ustunlik mavqeini suiiste'mol qilishning oldini olish va unga yo'l qo'ymaslik bo'yicha nazorat olib borishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Raqobat to'g'risida"gi qonuni 13-moddasida "ustun mavqe" tushunchasi quyidagicha izohlanadi: Tovar yoki moliya bozoridagi

xo'jalik yurituvchi subyektning yoxud shaxslar guruhining unga o'z faoliyatini raqobatlashuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarga bog'liq bo'lmagan holda amalga oshirish va raqobatning holatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatish, tegishli bozorga boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning kirishini qiyinlashtirish yoxud ushbu boshqa subyektlarning iqtisodiy faoliyat erkinligini boshqacha tarzda cheklash imkoniyatini beradigan holati ustun mavqedir.

Tovar yoki moliya bozorida quyidagilar ustun mavqe deb e'tirof etiladi:

-agar xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining raqobatchilari mavjud bo'lmasa;

-agar xo'jalik yurituvchi subyektning yoxud shaxslar guruhining bozordagi ulushi 40 foizni va undan ortiqni tashkil etsa;

-agar xo'jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhi tabiiy monopoliya subyekti deb e'tirof etilsa;

-agar xo'jalik yurituvchi subyektga yoki shaxslar guruhiga muayyan tovarlarni ishlab chiqarish yoki realizatsiya qilish yoxud olish uchun qonunchilikda belgilangan tartibda mutlaq va (yoki) eksklyuziv huquq berilgan bo'lsa.

Oxirgi kalendar yilda tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan tushumi bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz ming baravaridan kamroqni tashkil etuvchi xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining (bundan tabiiy monopoliya subyektlari, mahsulotlarining narxлари davlat tomonidan tartibga solinadigan xo'jalik yurituvchi subyektlar mustasno) tovar yoki moliya bozoridagi holati ustun mavqe deb e'tirof etilmaydi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining tovar yoki moliya bozoridagi ustun mavqeyi e'tirof etilgan kundan e'tiboran uch kunlik muddatda vakolatli davlat organi bu haqda ularga xabarnoma yuboradi, mazkur xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining tovarlariga nisbatan narxlar davlat tomonidan tartibga solingan taqdirda esa bu haqda narxni tartibga soluvchi organga ham xabar beradi.

Tovar yoki moliya bozorida xo'jalik yurituvchi subyektning yoxud shaxslar guruhining, raqamli platforma operatorining ustun mavqeyini aniqlash va e'tirof etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi (Qonun, 2023).

Bugungi kunda har qanday qonun yoki islohot raqobatchilarni emas, raqobat muhitini qo'llab-quvvatlashi lozim. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirayotganda, yuqoridagi faktorlarni hisobga olish lozim. Shuningdek, xorijiy davlatlarda raqobat muhitini rivojlantirishda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni kuzatib borish, tahlil qilish va uni iqtisodiyotimizga moslashtirish orqali ham yurtimizdagi iqtisodiy muhitni yanada yaxshilash mumkin. Shuningdek, iqtisodiyotda yuqori samarali raqobat strategiyani shakllantirish va amalga oshirish davlatning korxonalarining tashqi va ichki bozorlardagi barqaror mavqeini ta'minlash shartlarini belgilab beruvchi uzoq muddatli iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Yuridik nuqtai-nazardan, monopoliyaga qarshi siyosat – bu davlatning ishlab chiqarishni monopollashuviga qarshi hamda tovar ishlab chiqaruvchilar orasida raqobatni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlari (tegishli qonunchilik va soliqqa tortish tizimi, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, kichik tadbirkorlikni rag'batlantirish va h.k.) majmuidir. Iqtisodiy nuqtayi-nazardan, monopoliyaga qarshi siyosat – bu davlatning monopoliyalar paydo bo'lishini, qo'shilish va birlashtirib olish harakatlarni, kartellar tashkil etilishini, narx hokimligini, raqobatga qarshi qilinayotgan harakatlarni cheklash va tartibga solishga yo'naltirilgan siyosati (Rayzberg, Lozovskiy & other, 2010).

Yana bir kengroq ta'riflaganda, monopoliyaga qarshi siyosat – bu davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar (tegishli qonunchilikni ishlab chiqish, qabul qilish va amalga kiritish, soliqqa tortish tizimi, mulkni denatsionalizatsiya qilish, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, kichik korxonalar yaratilishini qo'llab-quvvatlash) majmui bo'lib, ular trestlarga qarshi qonunchilikka va insofsiz raqobatni oldini olish borasidagi qonunchilikka tayanadi, shuningdek raqobatni rivojlantirish, bozor munosabatlari

ishtirokchilarining monopol faoliyatiga hamda bozorda monopoliyalarining hosil bo'lishiga to'sqinlik qiluvchi sharoitlarni yaratishga qaratilgan.

O'zbekistonda davlatning raqobatchilik muhitini shakllantirishga qaratilgan siyosatida xususiylashtirish, davlat mulki hisobidan mulkchilikning boshqa shakllarini vujudga keltirish asosiy o'rin tutadi. Xususiylashtirish natijasida, birinchidan, mulk o'z egalarining qo'liga topshirilsa, ikkinchidan, ko'p ukladli iqtisodiyod va raqobatchilik muhitini vujudga keltiradi. O'zbekistonda raqobatchilik muhitini vujudga keltirishning asosiy yo'li, bu raqobatni inkor qiluvchi davlat monopoliyasidan nodavlat, turli xo'jalik shakllarining mavjudligiga asoslangan va iloji boricha erkin raqobatni taqozo etuvchi bozor iqtisodiga o'tishdir. Bu yerda esa raqobatchilik munosabatlarini shakllantirish, mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilarning paydo bo'lishini taqozo qiladi, chunki raqobatning asosiy sharti alohidalashgan, mulkiy mas'uliyat asosida o'z manfaatiga ega bo'lgan va tadbirkorlik tahlikasini zimmasiga oluvchi erkin xo'jalik subyektlari mavjudligi, ularning bozor orqali aloqa qilishidir. Dunyo mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishining qaysi modelini tanlamasin milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligidagi mavqeyi uning raqobatbardoshlik darajasi bilan belgilanadi. Xalqaro raqobat texnik taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi va uning ta'sirida ishlab chiqarish, boshqaruvtexnologiyalarining doimiy yangilanib borish davom etadi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotb turlari yangilanadi va sifati oshib boradi.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi ta'riflarni tahlil qilib, xulosa qilgan holda, mamlakatda monopoliyaga qarshi siyosat davlat tomonidan olib boriladigan iqtisodiy siyosat turlaridan biri bo'lib, u asosan ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobatni rivojlantirishga qaratilgan. Bugungi kunda monopoliyalarni tartibga solish zarurati, monopoliyaga qarshi boshqaruvni tartibga solishga oid iqtisodiy bir qancha ta'riflar keltirildi. Ya'ni, zamonaviy iqtisodiy lug'atlardan birida "monopoliyaga qarshi tartibga solish – bu davlatning alohida ishlab chiqaruvchilar tomonidan u yoki bu turdagi mahsulotni monopollashib olish harakatlarini oldini olishga yo'naltirilgan hamda iste'molchilar huquqlarini himoyalashga qaratilgan faoliyatidir" degan ta'rif keltiriladi.

Ushbu tushuncha kengroq talqin qilinganda, ya'ni monopoliyaga qarshi tartibga solish – bu raqobat bozorini samarali faoliyat yuritish sharoitlarini ta'minlash hamda uning haddan tashqari monopollashuviga yo'l qo'ymaslik bo'yicha davlat tomonidan amalga oshiriladigan iqtisodiy, ma'muriy va qonunchilik choralari majmuidir. Monopoliyaga qarshi tartibga solish ishlab chiqarish va muomala sohasini konsentratsiyalashuv va monopollashuv jarayonlarini tartibga solish, xususiylashtirish uchun sharoitlarni qo'llab-quvvatlash va korxonalar tomonidan bunday raqobatlashuv shartlariga rioya qilish ustidan nazorat olib borish, tashqi iqtisodiy faoliyatni (bozorning xorijiy raqobatchilar uchun ochiqligi yoki eksport monopoliyasini rag'batlantirish) tartibga solish kabi ishlarni o'z ichiga oladi. Monopoliyaga qarshi tartibga solish ishlari monopoliyaga qarshi qonunchilik, iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish va raqobatli bozorni rivojlantirish bo'yicha maxsus dasturlar hamda qabul qilingan me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Qisqa qilib aytganda, monopoliyaga qarshi boshqaruv – bu iqtisodiyotda monopoliyalar paydo bo'lishi, narx hokimligi, raqobatga qarshi qilinayotgan harakatlarni cheklash va oldini olishga yo'naltirilgan hamda raqobatni rivojlantirish, iste'molchilar huquqlarini himoyalash, insofsiz raqobatga yo'l qo'ymaslik, ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash orqali raqobatchilik muhitini yaratishga qaratilgan davlat tomonidan amalga oshiriladigan iqtisodiy, ma'muriy va qonunchilik chora-tadbirlari tizimidir.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Farmon (2013) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 6-iyundagi "Ma'muriy islohotlar doirasida raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-108-son Farmoni 2-moddasi.

Farmon (2023) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 6-iyundagi "Ma'muriy islohotlar doirasida raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-108-son Farmoni.

Kostusev A.A. (2004) Konkurentnaya politika v Ukraine: Monografiya.

Qonun (2023) O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 3-iyulda yangi tahrirdagi "Raqobat to'g'risida"gi O'RQ-850-son Qonuni.

Qonun (2023) O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 3-iyulda yangi tahrirdagi "Raqobat to'g'risida"gi O'RQ-850-son Qonuni 13-moddasi

Rayzberg B.A., Lozovskiy L.Sh., Starodubtseva Ye.B. (2010) Sovremenniy ekonomicheskij slovar.

Stankovskaya I.K., Strelets I.A. (2008) – Ekonomicheskaya teoriya. Darslik.